V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

JALILOV ALISHER AKBAROVICH

AYLANA GOMEOMORFIZMLARI BILAN BOG‘LIQ DANJUA TENGLIGI VA CHEKSIZ IKKILIK KETMA-KETLIKLARI

01.01.01 – Matematik analiz

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATISYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2021

UDK: 517.9

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

JALILOV ALISHER AKBAROVICH

AYLANA GOMEOMORFIZMLARI BILAN BOG‘LIQ DANJUA TENGLIGI VA CHEKSIZ IKKILIK KETMA-KETLIKLARI

01.01.01 – Matematik analiz

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATISYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2021

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/FM621 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus(rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (http://kengash.mathinst.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta‘lim portalida (http://www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Ayupov Shavkat Abdullayevich** Fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Rasmiy opponentlar:	**Rahimov Abdug‘ofur Abdumajidovich** Fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Safarov O‘tkir Avlayorovich Fizika-matematika fanlari nomzodi
Yetakchi tashkilot:	**Qoraqalpoq davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqarmli Ilmiy kengashning 2022 yil « ___ »__________soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+99871)-207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+99871)-207-91-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2021 yil « ___ » __________ kuni tarqatildi.
(2021 yil « ___ » ______________dagi -raqamli reestr bayonnomasi).

U.A.Rozikov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi
f-m. f.d., professor

J.K. Adashev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
f-m. f.d., katta ilmiy xodim

U.U. Jamilov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash huzuridagi
Ilmiy seminar raisi,
f-m.f.d., katta ilmiy xodim

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida olib borilayotgan koʻplab ilmiy-amaliy tadqiqotlarda bir oʻlchovli va simvolli dinamik sistemalar keng oʻrin egallaydi. Dinamik sistemalar matematikaning bir qancha boshqa sohalarida keng qoʻllaniladi. Undan tashqari, meditsina, biologiya, axborot texnologiyalari va boshqa tabiiy fanlarda masalalarni yechishda aylana akslantirishlari va simvolli dinamikadan izchil foydalanib kelinmoqda. Chiziqli boʻlmagan dinamik sistemalar koʻrinishida modellashtirilgan muayyan jarayonni uzoq muddatli holatini bashorat qilishda dinamik sistemalarning tushish vaqtlari, tasodifiy siljishlari va cheksiz simvolli ketma-ketliklar murakkablik funksiyalarining xossalari muhim rol oʻynaydi. Shu sababdan dinamik sistemalarning tushish vaqtlari uchun limitik teoremalar, chiziqli va nochiziqli akslantirishlarni tafsiflovchi ketma-ketliklarning xossalarini tadqiq qilish dinamik sistemalar nazariyasining muhim va dolzarb masalalaridan biri boʻlib kelmoqda.

Hozirgi kunda olib borilayotgan nochiziqli dinamik sistemalarni uzoq vaqtdagi holatini bashorat qilish, xususan aylana akslantirishlari bilan bogʻliq boʻlgan muammolar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aylana akslantirishlarining muhim sinfi hisoblangan aylana diffeomorfizmlari masalalari chuqur va toʻliq hal qilingan boʻlib, aylana diffeomorfizmlarining tabiiy umumlashmasi boʻlgan boʻlakli silliq aylana akslantirishlari uchun Danjua tengligi hozirgi kungacha topilmagan. Soʻnggi yillarda maxsuslikka ega aylana akslantirishlari nazariyasi uchun Danjua tengsizligi, qattiqlik muammosi masalalari yechilgan. Bu borada: ikkita sinish nuqtasiga ega aylana akslantirishlari uchun Danjua tengligini topish, kiritik aylana akslantirishlarining tushish vaqtlari nolmallangan taqsimot funksiyalari yaqinlashishini isbotlash va cheksiz ketma-ketliklarning murakkablik funskiyalarini topish maqsadli ilmiy tadqiqotlardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda amaliy va fundamental fanlarda qoʻllaniladigan, chiziqli boʻlmagan va simvolli dinamik sistemalari nazariyasining muhim yoʻnalishlarini ishlab chiqishga katta eʻtibor qaratildi. «Funksional analiz, matematik fizika va statistik fizika» kabi muhim sohalarda xalqaro statndartlar darajasida tadqiqotlar olib borish fundamental tadqiqotlarning asosiy vazifasi etib belgilandi[1]. Mazkur qaror ijrosini ta’minlashda ilm-fanning turdosh sohalarida foydalanish maqsadida boʻlakli silliq dinamik sistemalar nazariyasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha xarakatlar strategiyasi toʻgʻrisida»gi Farmoni, 2019 yil 9 iyuldagi PQ-4387-son «Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash, shuningdek, O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi va 2020 yil 7 maydagi PQ-4708-son «Matematika sohasidagi ta’lim

[1] Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi 2017 yil 18 maydagi «Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish toʻgʻrisida»gi 292-sonli qarori.

sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ–huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. «Matematika, mexanika va informatika» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Simvolli dinamika sohasi umumiy dinamik sistemalarni tahlil qilish vositasi sifatida rivojlandi. Adamar 1898 yilda salbiy egilish yuzalaridagi geodezik oqimlarni tahlil qilishda simvolli dinamika usullaridan birinchi marta muvaffaqiyatli foydalangan. Qirq yil o‘tgach, M. Mors va G. Hedlund fundamental maqolasida simvolli dinamikadan birinchi bo‘lib foydalangan va unga nom bergan. Keyinchalik S.E.Shennon tomonidan axborotlar nazariyasida simvolli dinamika qo‘llanilgan va boshqa olimlar tomonidan keng qo‘llanila boshlangan. Simvolli dinamikada cheksiz ikkilik ketma-ketliklari juda ko‘p soxalarda tatbiqga ega muhim tushuncha hisoblanadi va bunda murakkablik funksiyasi asosiy rol o‘ynaydi. Murakkablik funksiyasi minimal bo‘lgan cheksiz nodavriy ikkilik ketma-ketliklar Shturm ketma-ketlaridir. Bu ketma-ketliklar juda keng o‘rganilgan bo‘lib, aylana akslantirishlari bilan uzviy bog‘langan.

Ya. Sinay o‘zining muhim ishida Anosov oqimlarini tadqiq qilish uchun simvolli dinamikadan foydalangan. E. Vul, Ya. Sinay va K. Xanin Feigenbaum asklantirishi uchun simvolli dinamika tuzgan va termodinamik formalizmni qurgan. Simvolli dinamika aylana akslantirishlari nazariyasida ham muhim rol o‘ynaydi. Ma’lumki, aylananing har bir irratsional burish akslantirishlari yordamida cheksiz ikkilik ketma-ketliklar fazosi qurish mumkin. Ikkilik ketma-ketligining murakkablik funksiyalarini o‘rganish simvolli dinamika nazariyasining asosiy muammolaridan biridir. Z. Koelo, E. De Faria irratsional burishlar uchun qayta tushish vaqtlarini o‘rgangan. A. Djalilov kritik aylana akslantirishlari uchun termodinamik formalizmni qurgan.

Danjua tengsizligi aylana dinamikasida muhim o‘rin egallaydi. Dastlab bu tengsizlik Danjua tomonidan aylana diffeomorfizmlari uchun isbotlangan. Bu muhim tengsizlikdan foydalanib berilgan aylana gomeomorfizmini chiziqli irratsional burish akslantirishiga topologik ekvivalentligi ko‘rsatilgan. Ya. Sinay va K. Xanin, Y. Katsnelson va D. Ornsteyn renormalizatsiya metodidan foydalanib Danjua tengsizligini kuchaytirilgan ko‘rinishda isbotlagan. Bu olingan natija esa qo‘shma akslantirishining silliqligini isbotlashda muhim rol o‘ynaydi. Bo‘lakli-silliq aylana akslantirishlari diffeomorfizmlarning tabiiy umumlashmasidir. M. Erman o‘zining fundamental ishida bo‘lakli-chiziqli ikkita sinishga ega bo‘lgan, ergodik aylana gomeomorfizmlari uchun invariant o‘lchovlarni faqat ikkala sinish nuqtalari bitta orbitada yotgan holda absolyut uzluksiz bo‘lishini isbotlagan. Maxsuslikka ega bo‘lgan f aylana akslantirishlari uchun “qattiqlik” muommosi ya’ni qo‘shma gomeomorfizmning silliqligi bilan bog‘liq masalalarda Df^{q_n} hosilalarini baholash juda katta ahamiyatga ega.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tekshirish institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining OT-F4-82 «Operatorli va noassotsiativ algebralar lokal differensiallashlari va avtomorfizmlari, chiziqli bo‘lmagan dinamik sistemalarda fazali o‘tish va tartibsizlik» (2017-2020 yillar) va YoFA-Ftex-2018-78 «Amenabel bo‘lmagan graflarda dinamik va termodinamik sistemalar» (2018-2019 yillar) mavzusidagi ilmiy tadqiqot loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi aylana akslantirishlari bilan bog‘liq cheksiz ikkilik ketma-ketliklarining murakkablik funksiyalarini qurish va Erman akslantirishlari uchun Danjua tengligini topishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

aylananing irratsional burish akslantirishlari bilan bog‘liq cheksiz ikkilik ketma-ketliklarning barcha asosiy xossalarini va murakkablik funksiyalarini o‘rganish;

Erman akslantirishlari va uning yuqori iteratsiyalari tomonidan hosil qilingan cheksiz ketma-ketliklarning murakkablik funksiyalarini o‘rganish;

Erman akslantirishlari uchun sinish nuqtalari orbitasining aylanada joylashuvini o‘rganish;

Erman akslantirishlarining Danjua ko‘paytmasi uchun sinish nuqtalarining sinish kattaliklari va invariant o‘lchov orqali aniq ifodasini topish.

Tadqiqotning obyekti cheksiz ikkilik ketma-ketliklari, aylananing irratsional burish akslantirishi, Erman akslantirishi, kritik aylana gomeomorfizmlari va tushish vaqtlari.

Tadqiqotning predmeti simvolli dinamikalar fazosi, aylana akslantirishlari sinfi, ehtimollik inavariant o‘lchovlari nazariyasi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada matematik analiz, funksional analiz, simvolli dinamika, ergodiklik nazariyasi va ehtimollar nazariyalari usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

aylananing irratsional burish akslantirishlari bilan bog‘langan cheksiz ikkilik ketma-ketliklarining murakkablik funksiyalari topilgan;

bitta kubik kritik nuqtaga va irratsional burish soniga ega bo‘lgan silliq aylana akslantirishlarining normallangan tushish vaqtlari taqsimot funksiyalarining yaqinlashishi va limit taqsimot funksiyasining singularligi isbotlangan;

ikkita sinish nuqtasiga ega va burish soni irratsional bo‘lgan bo‘lakli-chiziqli aylana gomeomorfizmlarining sinish nuqtalari joylashuvi topilgan va bunday akslantirishlar uchun Danjua tengligi isbotlangan;

ikkita sinish nuqtalariga ega bo‘lgan bo‘lakli-chiziqli va burish soni irratsional bo‘lgan aylana akslantirishlarining birinchi qaytish vaqti funksiyasining normallangan hosilalari bilan bog‘langan ikkilik ketma-ketliklari Shturm ketma-ketligi ekanligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi cheksiz ikkilik ketma-ketliklarining xossalari va murakkablik funksiyalari, singulyar invariant o‘lchovning sonli ko‘rsatkichlari va taqsimot funksiyalari ketma-ketligining sust yaqinlashishini isbotlashda qo‘llanilgan usullarni bayon qilinganligidan iborat.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi funksional analiz, stoxastik jarayonlar va diskret vaqtli dinamik sistemalar nazariyasi usullaridan foydalanilgani hamda matematik mulohazalarning qat’iyligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati aylana gomeomorfizmlari bilan bog‘liq cheksiz ikkillik ketma-ketliklarning murakkablik funksiyalarini topish, termodinamik formalizm metodi yordamida invariant o‘lchovning singulyarlik ko‘rdatkichlarini topish va taqsimot funksiyalarining yaqinlashishini isbotlash bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati bir nechta sinish nuqtalariga va kritik nuqtalarga ega aylana gomeomorfizmlarida “qattiqlik muammosi”ni o‘rganishda tatbiq etish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Aylana gomeomorfizmlari bilan bog‘liq Danjua tengligi va cheksiz ikkilik ketma-ketliklari bo‘yicha olingan natijalar asosida:

ikkita sinish nuqtasiga ega va burish soni irratsional bo‘lgan bo‘lakli-chiziqli aylana gomeomorfizmlari sinish nuqtalari joylashuvidan OT-F-4-03 raqamli «Uzluksiz hamda diskret vaqtli aniq dinamik sistemalar, qismiy integral operatorlar spektrlari» mavzusidagi fundamental ilmiy loyihada maxsuslikka ega aylana akslantirishlariga mos transfer operatorning darajalari asimptotikasini va spektrini topishda foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2021 yil 12 iyundagi № 04/1900-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijaning qo‘llanilishi diskret vaqtli dinamik sistemalar uchun orbitalar va ularning asimptotik xossalarini to‘liq tasniflash imkonini bergan;

kritik nuqtaga va irratsional burish soniga ega bo‘lgan silliq aylana akslantirishlarining normallangan tushish vaqtlari taqsimoq funksiyalarining yaqinlashishidan OT-F-4-40 raqamli «O‘lchovli funksiyalar sinfida indekslangan integral empirik protsesslarning asimptotik xossalarini tadqiq qilish» (O‘zbekiston Milliy universitetining 2021 yil 16 sentabrdagi № 04/11-4794 sonli ma’lumotnomasi) mavzusidagi fundamental loyihada o‘lchovli funksiyalar sinfida indekslangan integral empirik protseslarning asimptotik xossalarini aniqlash jarayonida foydalanilgan. Ilmiy natijaning qo‘llanilishi kuchli bog‘langan tasodifiy miqdorlar taqsimot funksiyalarining absolyut uzluksizligini isbotlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 2 tasi xorijiy va 3 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 96 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, ob’ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Simvolli dinamika va aylana akslantirishlari**” deb nomlangan birinchi bobida simvolli dinamik sistemalardan, xususan, cheksiz ikkilik so‘zlar va Shturm so‘zlariga doir kerakli ta’riflar va teoremalar bayon qilingan.

Shuningdek, aylana gomoemorfizmlari va simvolli dinamika o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganilgan. Bundan tashqari, aylana akslantirishlari nazariyasiga oid asosiy tushunchalar va tasdiqlar keltirilgan: yo‘nalishni saqlovchi aylana gomeomorfizmlarining burish soni, ehtimollik invariant o‘lchovi, kritik aylana akslantirishlari, chekli sondagi sinish nuqtalariga ega bo‘lgan bo‘lakli-silliq aylana gomeomorfizmlari va tushish vaqti tushunchalari keltirilgan.

Birinchi bobning birinchi paragrafida cheksiz ikkilik so‘zlarga doir kerakli faktlar, xususan, ikkilik so‘zlarining tili, davriyligi, murakkabligi, so‘zlarning takrorlanishi tushunchalari keltirilgan. Shuningdek, cheksiz ikkilik so‘zlarning alohida turlari o‘rganilgan.

Agar biror u chekli so‘z va y cheksiz so‘z uchun $\omega = uwy$ o‘rinli bo‘lsa, u holda w chekli so‘z chekli A to‘plamda aniqlangan ω cheksiz so‘zining **qismso‘zi** deyiladi.

1-ta’rif. *Cheksiz so‘z ω ning* ***murakkabligi*** *deb ω ning uzunligi n ga teng barcha qismso‘zlari sonini aniqlaydigan $p_\omega(n)$ funksiyaga aytiladi.*

Bu funksiya quyidagi xossalarga ega:

- kamaymaydigan funksiya, ya‘ni, $p_\omega(n+1) \geq p_\omega(n)$.
- $p(1) = \#\text{A}$.
- davriy so‘z uchun shunday $C \in \mathbb{N}$ topiladiki, barcha $n \in \mathbb{N}$ larda $p_\omega(n) \leq C$ shartni qanoatlantiradi.

2-ta’rif. *Agar barcha n natural sonlar uchun $p_s(n) = n+1$ bajarilsa, u holda s cheksiz so‘*z ***Shturm so‘zi*** *deyiladi.*

Aylananing irratsioanal burishi akslantirishi bilan bog‘langan $\omega(x) = \{\omega_1, \omega_2, ...\}$ cheksiz so‘z **irratsional mexanik so‘z** deyiladi.

Birinchi bobning birinchi paragrafida Shturm so‘zlarining fundamental ekvivalentlik teoremasi keltirib o‘tilgan va bu uchinchi bobning uchunchi paragrafidagi asosiy tasdiqni isbotlash uchun juda muhim sanaladi.

1-teorema. *Aytaylik ω cheksiz ikkilik so‘zi bo‘lsin. Quyidagi tasdiqlar ekvivalentdir:*

(1) ω Shturm so‘zi.

(2) ω irratsional mexanik so‘z.

(3) ω muvozanatli va davriy emas.

Ikkinchi paragrafda aylana gomeomorfizmlari nazariyasi, kritik aylana akslantirishlari, dinamik bo‘linishlar va ular bilan bog‘liq simvolli dinamika haqidagi dastlabki zarur tushunchalar o‘rganilgan.

3-ta’rif. *Agar f funksiya biror ε - atrof $U_{\varepsilon}(x_{cr})=(x_{cr}-\varepsilon, x_{cr}+\varepsilon)$ uchun $C^{2d+1}(U_{\varepsilon}(x_{cr}))$ sinfga tegishli bo‘lsa va quyidagi shart bajarilsa*

$$\frac{df}{dx}(x_{cr})=\frac{d^2 f}{dx^2}(x_{cr})=...=\frac{d^{2d} f}{dx^{2d}}(x_{cr})=0, \quad \frac{d^{2d+1} f}{dx^{2d+1}}(x_{cr})\neq 0,$$

u holda $x_{cr}\in S^1$ nuqta f gomeomorfizmning $(2d+1), d\geq 1$ tartibli kritik nuqtasi deyiladi.

4-ta’rif. *Agar f akslantirish yagona toq tartibli kritik nuqtaga ega bo‘lsa, u holda f akslantirish* ***kritik akslantirish*** *deyiladi.*

So‘nggi 20-25 yillarda ko‘plab mualliflar kritik akslantirishlar uchun “qattiqlik” muammosini o‘rgandilar.

Ostlund va boshqa olimlar kritik aylana akslantirishlari sinfidagi renormgruppa almashtirishini o‘rganganlar. Ostlund va boshqalarning ishidan foydalanib, uchinchi tartibli haqiqiy-analitik kritik aylana gomeomorfizmlar to‘plamiga mos keladigan haqiqiy-analitik juftliklarni aniqlaymiz. Haqiqiy sonlar to‘plamida qat’iy o‘suvchi va quyidagi shartlarni qanoatlantiradigan haqiqiy-analitik juftliklar (ξ,η) to‘plami $\mathcal{X}_{cr}$ ni qaraymiz:

(c_1) $0<\xi(0)<1, \ \xi(0)=\eta(0)+1;$

(c_2) $\xi(\eta(0))=\eta(\xi(0))>0;$

(c_3) $\xi'(0)=\eta'(0)=\xi''(0)=\eta''(0)=0,$ lekin $\xi'''(0)\neq 0$ va $\eta'''(0)\neq 0$;

(c_4) $(\xi\circ\eta)'''(0)=(\eta\circ\xi)'''(0).$

(c_1) va (c_2) shartlar birlik aylanada $f=f_{\xi,\eta}$ gomeomorfizmni har bir $(\xi,\eta)\in\mathcal{X}_{cr}$ juftlik bilan bog‘lash imkonini beradi. Ya’ni, $[\eta(0),0]$ oraliqda $f=\xi$ va $[0,\xi(0)]$ oraliqda $f=\eta$ deb aniqlaymiz va $[\eta(0),\xi(0)]$ birlik intervalni chetki nuqtalari bilan ayniylanuvchi birlik aylana bilan bog‘laymiz. $f_{\xi,\eta}$ akslantirishning $\rho=\rho(f_{\xi,\eta})$ burish soni odatiy yo‘l bilan aniqlanadi.

Burish soni “oltin kesimga”, ya‘ni $\rho(f_{\xi,\eta})=\bar{\rho}=\frac{\sqrt{5}-1}{2}$ ga teng $\mathcal{X}_{cr}$ ning qism to‘plami bo‘lgan (ξ,η) juftliklarni $\mathcal{X}_{cr}(\bar{\rho})$ bilan belgilaymiz.

Quyidagi renormgruppa almashtirishini aniqlaymiz: $\Re:\mathcal{X}_{cr}(\bar{\rho})\to\mathcal{X}_{cr}(\bar{\rho})$, $\Re(\xi,\eta)=(\alpha\eta(\alpha^{-1}x),\alpha\eta(\xi(\alpha^{-1}x))$, bu yerda $\alpha:=\alpha_{\xi,\eta}=[\eta(0)-\eta(\xi(0))]^{-1}$.

(c_1), (c_2) shartlaridan $\alpha<-1$ ekanligi kelib chiqadi. $\Re$ renormgruppa almashtirishi $\mathcal{X}_{cr}(\bar{\rho})$ qism fazoda yagona giperbolik qo‘zg‘almas (ξ_0,η_0) nuqtaga ega. Shuningdek, $\xi_0(x)$, $\eta_0(x)$ funksiyalar x^3 ning haqiqiy-analitik funksiyalari va $\alpha_0:=\alpha_{\xi_0,\eta_0}\approx-1,2886$. (ξ_0,η_0) juftlik bilan bog‘langan aylana akslantirishlarini $f_{cr}:=f_{\xi_0,\eta_0}$ orqali belgilaymiz.

f_{cr} ga C^1-qo‘shma bo‘lgan barcha aylana gomemomorfizmlari to‘plamini $Cr(\bar{\rho})$ orqali belgilaymiz. Ma’lumki, ixtiyoriy ikkita topologik qo‘shma gomeomorfizmlar bir xil burish soniga ega. Bundan tashqari, $Cr(\bar{\rho})$ ga tegishli gomeomorfizmlarning burish sonlari bir xil va $\bar{\rho}$ ga teng bo‘ladi.

$Cr(\bar{\rho})$ sinfdan bo‘lgan kritik aylana akslantirishlari uchun termodinamik formalizm A. Djalilov tomonidan qurilgan.

Uchinchi paragrafda kritik aylana akslantirishlarining tushish vaqtlari uchun kerakli bo‘lgan ta’riflar va teoremalar keltirilgan.

Aytaylik, f irratsional $\rho=\rho(f)$ burish soniga ega bo‘lgan $S^1=\mathbb{R}/\mathbb{Z}\cong[0,1)$ aylanadagi yo‘nalishni saqlovchi gomeomorfizm bo‘lib, $\mu=\mu(f)$ o‘lchov f ning yagona invariant ehtimollik o‘lchovi bo‘lsin. Aylanadan $z\in S^1$ nuqtani fiksirlaymiz va $V_\varepsilon(z)=[z,z+\varepsilon]\subset S^1$ intervalni qaraymiz. Ushbu V_ε intervalga birinchi tushish vaqtini quyidagi formula yordamida aniqlaymiz:

$$E_\varepsilon(t)=\inf\{i\geq 1: T^i(t)\in V_\varepsilon(z)\}.$$

Endi esa, normallangan tushish vaqtini $\bar{E}_\varepsilon(t)=\mu(V_\varepsilon(z))E_\varepsilon(t)$ orqali aniqlaymiz. Tasodifiy miqdor $\bar{E}_\varepsilon(t)$ ning taqsimot funksiyasining yaqinlashishi masalasini qaraymiz, ya’ni quyidagi taqsimot funksiyasining $\varepsilon\to0$ da, limit funksiyasining uzluksizlik nuqtalariga tegishli bo‘lgan har bir t uchun:

$$F_\varepsilon(t)=\mu\left(x\in S^1: E_\varepsilon^{(1)}(x)\leq t\right),\ \forall t\in\mathbb{R}$$

yaqinlashishini o‘rganamiz.

Chiziqli irratsional burish $f_\rho(x)=x+\rho(\mathrm{mod}1)$ uchun $\bar{E}_\varepsilon(t)$ tasodifiy miqdorning yaqinlashishi masalasi Z. Koelo va E. de Faria tomoidan o‘rganilgan. Ma’lumki, f_ρ chiziqli irratsional burishlar uchun yagona invariant o‘lchov bu ℓ Lebeg o‘lchovidir. Agar $\varepsilon=\varepsilon_n$ni Z. Koelo va E. de Faria ishlaridagi kabi tanlab $V_{\varepsilon_n}(z)$ intervallar f_ρ ning renorm intervallari ketma-ketligiga mos bo‘lsa, u holda Lebeg o‘lchovida deyarli barcha ρ burish sonlari uchun $\bar{E}_\varepsilon(t)=\mu(V_\varepsilon(z))E_\varepsilon(t)$ normallangan tushish vaqti ε nolga intilganda taqsimot bo‘yicha (sust) yaqinlashmasligi isbotlangan hamda ε_n ketma-ketlikning barcha qismiy ketma-ketliklari qaralgan. Shuningdek, agar $F_{\varepsilon_n}(t)$ har biri nolga yaqinlashadigan biror

ε_n uchun yaqinlashsa, $F(t)$ ehtimollik taqsimotining limiti ikkita uzilish nuqtasiga ega zinapoya funksiyasi yoki [0,1] oraliqda tekis taqsimot bo‘ladi.

Aytaylik q_n, $n \ge 1$ sonlar f_ρ ning birinchi qaytish vaqtlari bo‘lsin. Biror $\theta \in (0,1)$ ni fiksirlaymiz. Quyidagi formula yordamida barcha $n \ge 1$ lar uchun $c_n(\theta)$ nuqtalarni aniqlaymiz:

$$\mu([x_0, c_n(\theta)]) = \theta \cdot \mu([x_0, f_\rho^{q_n}(x_0)]).$$

$\Delta_{n,c}$ orqali $[x_0, c_n(\theta))$ intervalni belgilaymiz. $\Delta_{n,c}$ intervalga tushish vaqti $E_{n,c}$ ni qaraymiz. Normallangan tushish vaqtini quyidagi ko‘rinishda aniqlaymiz:

$$\bar{E}_{n,c}(x) = \mu(\Delta_{n,c}) E_{n,c}(x).$$

$F_{n,c}(t)$ orqali $\bar{E}_{n,c}(x)$ ning taqsimot funksiyasini belgilaymiz. Ixtiyoriy ρ irratsional son uchun $\bar{E}_{n,c}(x)$ normallangan tushish vaqti ε nolga intilganda taqsimot bo‘yicha yaqinlashmasligi Koelo va de Faria tomonidan isbotlangan.

Ushbu dissertatsiyada, yagona kritik nuqtaga ega bo‘lgan aylana gomeomorfizmlari uchun normallangan tushish vaqtlarini tadqiq qilamiz. Aytaylik, $f \in Cr(\bar{\rho})$ kritik aylana gomeomorfizmi bo‘lsin. Aylanada ikkita tabiiy o‘lchovlar mavjud: μ invariant ehtimollik o‘lchovi va ℓ Lebeg o‘lchovi. $\bar{E}_{n,c}(x)$ normallangan tushish vaqtining mos ravishda μ va ℓ ga nisbatan $F_{n,c}(t)$ va $\Phi_{n,c}(t)$ taqsimot funksiyalarini qaraymiz. f akslantirishning $F_{n,c}(t)$ taqsimot funksiyasi f_ρ chiziqli burishning taqsimot funksiyasi bilan ustma-ust tushadi. Shu bois, Koelo va de Faria ishidagi barcha tasdiqlar f-invariant μ o‘lchovlar uchun ham o‘rinli. μ invariant o‘lchovi Lebeg o‘lchoviga nisbatan singulyar bo‘ladi. E’tiborli jihati shundaki, chekli sondagi sinish nuqtalari va irratsional ρ burish soniga ega bo‘lakli silliq f aylana gomeomorfizmlari Lebeg o‘lchoviga nisbatan ham ergodik bo‘ladi. Ta’rifga ko‘ra

$$\Phi_\varepsilon(t) = \ell\left(x \in S^1 : E_\varepsilon^{(1)}(x) \le t\right), \ \forall t \in \mathbb{R}.$$

A.Djalilov oltin kesim irratsional burish soniga ega kritik aylana akslantirishlari va kritik nuqtaning renorm atrofi uchun taqsimot funksiyalarining Legeb o‘lchoviga nisbatan limit holatlarini o‘rgangan. A. Djalilov va J. Karimov bitta sinish nuqtasi va oltin kesim irratsional burish soniga ega aylana gomeomorfizmlari uchun taqsimot funsiyasining limit holatini tadqiq qilgan.

Birinchi bob to‘rtinchi paragrafda sinishga ega bo‘lgan aylana gomeomorfizmlariga tegishli zarur tasdiqlar keltirilgan.

Sinish nuqtalariga ega bo‘lgan aylana akslantirishlari so‘nggi 20 yil ichida K. Xanin, D. Xmelev, A. Teplinski, D. Smania, K. Kunya, D. Mayer, A. Djalilov, I. Luiz va boshqalar tomonidan muttasil ravishda o‘rganilgan. Sinish nuqtasiga ega bo‘lakli silliq aylana gomeomorfizmlari aylana diffeomorfizmlarining tabiiy umumlashmasidir. Agar aylananing biror nuqtasida birinchi tartibli hosilasida sakrash mavjud bo‘lsa, u holda bu nuqta **sinish nuqtasi** deb ataladi. Bo‘lakli chiziqli aylana gomeomorfizmlari sinishlarga ega eng oddiy gomeomorfizmlardir. M. Erman ikkita sinish nuqtasiga va irratsional burish soniga ega bo‘lgan bo‘lakli chiziqli gomeomorfizmlarning invariant o‘lchovi absolyut uzluksiz bo‘lishi uchun ikkala sinish nuqtasi bir orbitada yotishi zarur va yetarliligini isbotlagan.

Sinishga ega nochiziqli bo‘lakli silliq aylana gomeomorfizmlarining invariant o‘lchovlari K. Xanin, A. Djalilov, A.Teplinski, D. Mayer, I. Luiz, D. Smania va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

Diffeomorfizmlardan farqli o‘laroq, bunday gomeomorfizmlarning o‘zgarmas o‘lchovlari Lebeg o‘lchoviga nisbatan singulyardir (K. Xanin, A. Djalilov, D. Mayer, I. Luiz). Sinishga ega yetarlicha silliq (har bir oraliqda silliq) gomeomorfizmlar uchun ularning renormlari chiziqli bo‘lakli akslantirishlar bilan yaqinlashadi (K. Xanin, D. Xmelev, A. Teplinski, D. Smaniya, K. Kunya).

Dissertansiyaning “**Aylana akslantirishlari bilan bog‘langan murakkablik funksiyalari va tushish vaqtlari**” deb nomlangan ikkinchi bobida aylananing irratsional burishlari va kritik aylana akslantirishlarining tushish vaqtlari asimptotik holatlari bilan bog‘liq bo‘lgan cheksiz ikkilik so‘zlar tadqiq qilingan.

Ikkinchi bobning birinchi paragrafida birlik aylanada irratsional burish bilan bog‘liq bo‘lgan cheksiz ikkilik ketma-ketliklarining asosiy xossalari o‘rganilgan.

Ushbu [0,1) intervalda $f_\rho(x) = x + \rho (\text{mod} 1)$ irratsional burishni qaraymiz va $b \in S^1$ nuqtani fiksirlaymiz. Aylanada $P = \{[0,b),\ [b,1)\}$ bo‘linishni qaraylik. Har bir $n \geq 1$ uchun $S_n(0,b)$ to‘plamni aniqlaymiz:

$$S_n(0,b) := \{0, f_\rho^{-1}(0), ..., f_\rho^{-n+1}(0)\} \cup \{b, f_\rho^{-1}(b), ..., f_\rho^{-n+1}(b)\}.$$

$S_n(0,b)$ to‘plamning nuqtalari P_n bilan belgilangan bo‘linishni tashkil qiladi. $P_1 := P$ bo‘lsin, P_n ni quyidagicha aniqlaymiz,

$$P_n := P \vee f_\rho^{-1}(P) \vee ... \vee f_\rho^{-n+1}(P).$$

Bu yerda $P \vee Q := \{A \cap B : A \subset P, B \subset Q\}$. P_n va P_{n+1} bo‘linishlarning elementlarini hech qanday indekslarsiz $I^{(n)}$ va $I^{(n+1)}$ bilan belgilaymiz.

$P_n,\ n \geq 0$ bo‘linishlar ketma-ketligidan foydalangan holda simvolli dinamikaning ma’lum bir maxsus turini hosil qilamiz. Quyidagi $I_1 := [0,b)$ va $I_0 := [b,1)$ belgilashlarni kiritamiz. $\nu_b : S^1 \to \{0,1\}$ kodlash funksiyasini qaraymiz: barcha $i \geq 0$ lar uchun

$$\nu_b(f_\rho^i(x)) := \begin{cases} 0, \text{ agar } x \in f_\rho^{-i}(I_0), \\ 1, \text{ agar } x \in f_\rho^{-i}(I_1). \end{cases}$$

Ixtiyoriy $x \in S^1$ ni olib, bu nuqtaga mos keluvchi

$$\underline{\omega} = (\omega_0 \omega_1 ... \omega_n ...) := (\nu_b(x) \nu_b(f_\rho(x)) ... \nu_b(f_\rho^n(x)) ...) \qquad (1)$$

nol va birlardan iborat $\underline{\omega} := \underline{\omega}(x)$ cheksiz ketma-ketlikni aniqlaymiz.

Yuqorida keltirilgan (1) formula orqali aniqlangan barcha maqbul so‘zlar to‘plamini $L_\omega(\rho,b)$ orqali belgilaymiz:

$$L_\omega(\rho,b)=\{\underline{\omega}(x), x\in S^1\}.$$

Quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

- $\omega_m^{m+s}=(\omega_m\omega_{m+1}...\omega_{m+s}),\ m,\ s\geq 0,\ \underline{\omega}$ cheksiz so‘zning qismso‘zi,
- $\omega_m^{\infty}=(\omega_m\omega_{m+1}...),\ m\geq 0\ \ \underline{\omega}$ ning dum qismi.

5-ta’rif. *Agar barcha $n\geq N$ lar uchun $\omega_{n+T}=\omega_n$ shatrni qanoatlantiruvchi shunday $N,T\in\mathbb{N}$ topilsa, u holda $\underline{\omega}$ cheksiz so‘z* ***shartli davriy*** *deyiladi. Aks holda $\underline{\omega}$* ***davriy emas*** *deyiladi.*

Simvolli kodlash ta’rifidan quyidagi foydali faktlar osongina kelib chiqadi:

a) *aytaylik, $I^{(n)}$ interval P_n bo‘linishning ixtiyoriy intervali bo‘lsin. U holda ixtiyoriy ikkita $x,y\in I^{(n)}$ nuqtalar uchun ularning $n+1$ uzunlikdagi prefikslari ustma-ust tushadi, ya‘ni $\omega_0^n(x)=\omega_0^n(y)$. Shu sababli, $\bigcap_{i=0}^{m-1} f_\rho^{-i}(P)$ ning har bir intervaliga uzunligi m bo‘lgan bitta so‘z mos keladi.*

b) *$u_0u_1...u_{m-1}$ so‘zi biror $\underline{\omega}=(\omega_0\omega_1...\omega_n...)$ cheksiz so‘zning qismso‘zi bo‘lishi uchun, ya‘ni $i=0,...,(m-1)$ larda $\omega_{n+i}=u_i$ bajarilishi uchun, $f_\rho^n(x)\in I(u_0u_1...u_{m-1})$ bo‘lishi zarur va yetarli, bu yerda*

$$I(u_0u_1...u_{m-1})=\bigcap_{i=0}^{m-1} f_\rho^{-i}(I_{b_i})\in P_m.$$

c) *$I(u_0u_1...u_{m-1})$ interval bo‘sh bo‘lmasligi uchun $u_0u_1...u_{m-1}$ so‘zi $\underline{\omega}$ ning qismso‘zi bo‘lishi zarur va yetarli.*

Quyidagi belgilashni kiritamiz: $d_n=\max_{I^{(n)}\in P_n}|I^{(n)}|$.

1-lemma. *Barcha $n\geq 1$ lar uchun $d_n\geq d_{n+1}$ va $\lim\limits_{n\to\infty} d_n=0$ bo‘ladi.*

$I^{(n)}(x)$ orqali x nuqtani o‘z ichiga olgan $n-$bo‘linish P_n ning intervalini va $W_n(\underline{\omega}(x))$ orqali $\underline{\omega}(x)$ ikkilik cheksiz so‘zining uzunligi n ga teng barcha qism so‘zlari to‘plamini belgilaymiz.

2-teorema. *Aytaylik $x,y\in S^1$ va $\underline{\omega}(x),\ \underline{\omega}(y)$ cheksiz so‘zlar ularning mos ravishda (1) formula yordamida aniqlangan cheksiz ketma-ketliklari bo‘lsin. U holda quyidagilar o‘rinli:*

1. *Barcha $n\geq 0$ lar uchun $W_n(\underline{\omega}(x))=W_n(\underline{\omega}(y))$ bo‘ladi.*
2. *$\underline{\omega}(x)$ tekis takrorlanuvchi.*
3. *Ixtiyoriy $x\in S^1$ uchun $\underline{\omega}(x)$ davriy emas.*

Ikkinchi bob ikkinchi paragrafida birlik aylananing irratsional burishi bilan bog‘liq bo‘lgan cheksiz ikkilik ketma-ketliklarining murakkablik funksiyalari o‘rganilgan.

Ixtiyoriy $b\in[0,1)$ uchun $L_{\omega}(\rho,b)$ ning cheksiz so‘zlari murakkablik funsiyalarini o‘rganamiz. $b\neq\{\rho,1-\rho\}$ bo‘lsa, u holda barcha $n\geq1$ lar uchun $p_{\underline{\omega}}(n)\geq n+1$ bo‘ladi.

Agar $a,b\in A$ uchun ua va ub so‘zlar ham ω so‘zining qism so‘zi bo‘lsa, u holda u chekli so‘z ω cheksiz ikkilik so‘zining **o‘ng maxsus qismso‘zi** deyiladi.

$r(n)$ orqali n uzunlikdagi o‘ng maxsus qismso‘zlar sonini belgilaymiz va aytaylik $k_0=min\{n\geq1: r(n)=2\}$ bo‘lsin.

A ikkilik alifboda $r(n)$ o‘ng maxsus qismso‘zlar sonidan quyidagi formula yordamida murakkablik funksiyalarini aniqlashda foydalaniladi:

$$p_{\underline{\omega}}(n+1)=p_{\underline{\omega}}(n)+r(n).$$

Endi esa, ikkinchi paragrafning ikkita asosiy teoremalarini keltiramiz. Birinchi teoremada b nuqta 0 nuqtaning orbitasiga tegishli bo‘lmagan holat o‘rganilgan.

3-teorema. *Aytaylik, f_{ρ} akslantirish $\rho\in(0,1)$ irratsional burchakka chiziqli burish bo‘lsin va $b+n\rho\notin\mathbb{Z}$ bajarilsin. U holda quyidagilar o‘rinli:*

1. Agar $0<\rho<b$ bo‘lsa, u holda barcha $n\geq1$ uchun $p_{\underline{\omega}}(n)=2n$.

2. Agar $0<b<\rho$ bo‘lsa, u holda

$$p_{\underline{\omega}}(n):=\begin{cases} n+1, & agar\ \ n<k_0,\\ 2n-k_0+1, & agar\ \ n\geq k_0.\end{cases}$$

Quyidagi teoremada b nuqta 0 nuqtaning orbitasida yotadigan holat o‘rganilgan.

4-teorema. *Aytaylik, f_{ρ} akslantirish 3-teoremadagi shartlarni qanoatlantirsin va biror $d\in\mathbb{Z}\setminus\{0\}$ son uchun $b+d\rho\in\mathbb{Z}$ bo‘lsin. U holda quyidagilar o‘rinli:*

1. Agar $0<\rho<b$ bo‘lsa, u holda $p_{\underline{\omega}}(n):=\begin{cases} 2n, & agar\ \ n<|d|,\\ n+d, & agar\ \ n\geq|d|.\end{cases}$

2. Agar $0<b<\rho$ bo‘lsa. u holda $p_{\underline{\omega}}(n):=\begin{cases} n+1, & agar\ n<k_0,\\ 2n-k_0+1, & agar\ k_0\leq n<|d|\\ n+d-k_0-1, & agar\ n\geq|d|.\end{cases}$

Ikkinchi bobning uchinchi paragrafida yagona kubik kritik nuqtaga ega bo‘lgan $f\in Cr(\overline{\rho})$ kritik aylana akslantirishlari uchun normallangan tushish vaqtlarining asimptotik holatlari o‘rganilgan. Bu paragrafda quyidagi teorema isbotlangan va isbotlash davomida $E^{(1)}_{n,\theta}(x)$ tasodifiy miqdorlar uchun $\Phi_{n,\theta}(t)$ taqsimot funksiyalarining aniq formulasi topilgan.

Uchinchi paragrafning asosiy natijasini keltiramiz.

5-teorema. *Aytaylik* $\bar{\rho}=\dfrac{\sqrt{5}-1}{2}$ *va* $f\in Cr(\bar{\rho})$ *kritik akslantirish bo'lsin.* $\theta\in(0,1)$ *da* $[x_c,c_n(\theta)]$ *intervalga normallangan birinchi tushish vaqti* $E^{(1)}_{n,\theta}(x)$ *ga aylanada Lebeg o'lchoviga nisbatan* $\left\{\Phi_{n,\theta}(t)\right\}_{n=1}^{\infty}$ *taqsimot funksiyalari ketma-ketligini qaraymiz. U holda*

1) *Barcha* $t\in\mathbb{R}$ *lar uchun quyidagi chekli limit,* $\lim\limits_{n\to\infty}\Phi_{n,\theta}(t)=\Phi_\theta(t)$ *mavjud, undan tashqari* $t\le 0$ *da* $\Phi_\theta(t)=0$ *va* $t>1$ *da* $\Phi_\theta(t)=1$.

2) $\Phi_\theta(t)$ *limit funksiya [0,1] da qat'iy o'suvchi va* $\mathbb{R}$ da *uzluksiz taqsimot funksiyasi.*

3) $\Phi_\theta(t)$ *limit funksiya [0,1] da singulyar, ya'ni deyarli hamma yerda (aylanada* ℓ *Lebeg o'lchovi bo'yicha)* $\dfrac{\Phi_\theta(t)}{dt}=0$.

Dissertatsiyaning "**Danjua tengligi va P-gomeomorfizmlar uchun Shturm so'zlari**" deb nomlangan uchinchi bobi P-gomeomorfizmlarining sinish nuqtalari joylashuvi hamda h^{q_n} Erman akslantirishlarining normallangan hosilalari holatini o'rganishga bag'ishlangan.

$x_0\in S^1$ nuqta va uning $O(x_0)=\{x_i=f^i(x_0),\ i\in\mathbb{Z}\}$ orbitasini qaraymiz. Eslatib o'tamiz, $\mathcal{P}_n(x_0)=\{I_i^{(n-1)}(x_0),0\le i<q_n\}\cup\{I_j^{(n)}(x_0),0\le j<q_{n-1}\}$ intervallar sistemasi ixtiyoriy n uchun aylananing bo'linishini aniqlaydi, bu x_0 nuqtaning n**-dinamik bo'linishi** deyiladi.

Irratsional burish soni ρ_f va bitta orbitada yotmaydigan ikkita a_0 va c_0 sinish nuqtalariga ega bo'lgan f P-gomeomorfizmni qaraymiz. $\dfrac{p_n}{q_n}$ orqali ρ_f ning n-yaqinlashuvchi munosib kasrini belgilaymiz. S^1 aylanada f^{q_n} ning sinish nuqtalari joylashuvini va Df^{q_n} hosilani aniqlaymiz. Ravshanki, f^{q_n} akslantirish $BP_f^n:=BP_f^n(a_0)\cup BP_f^n(c_0)$ orqali ifodalangan $2q_n$ ta sinish nuqtasiga ega, ya'ni mos ravishda $a^*_{-i}=f^{-i}(a_0)$ va $c^*_{-i}=f^{-i}(c_0)$, $0\le i\le q_n-1$ sinish nuqtalaridan iborat. f^{q_n} akslantirishning ushbu sinish nuqtalari S^1 aylanada o'zaro kesishmaydigan $2q_n$ ta intervallarga bo'linadigan $B_n(f)$ bo'linishni aniqlaydi.

Ikkinchi sinish nuqtasi c_0 ning $B_n(f)$ bo'linish intervallaridagi joylashuvini quyida keltirilgan 4 ta farqli holatlarga bo'lib o 'rganamiz.

Aytaylik, $\mathcal{P}_n(a_0^*)$ bo'linish f akslantirishga nisbatan $a_0^*=a_0$ sinish nuqtasi orqali aniqlangan n-dinamik bo'linish bo'lsin. Faraz qilaylik, a_0^* va c_0^* sinish nuqtalari bitta orbitada yotmasin, u holda ikkinchi sinish nuqtasi uchun quyidagi uchta holatlar o'rinli bo'ladi:

I hol. $c_0^*\in I_{i_0}^{(n)}(a_0)$ biror $0\le i_0<q_{n-1}$ uchun.

II hol. $c_0^* \in f^{j_0}((a_0, a_{-q_n}))$ biror $0 \le j_0 < q_n$ uchun.

III hol. $c_0^* \in f^{j_0}((a_{-q_n}, a_{q_{n-1}}))$ biror $0 \le j_0 < q_n$ uchun.

Agar a_0^* va c_0^* sinish nuqtalari bitta orbitada yotsa, u holda:

IV hol. $c_0^* = f^{i_0}(a_0^*)$ biror $0 \le i_0 < q_n$ uchun.

Uchinchi bobning birinchi paragrafida f^{q_n} akslantirish sinish nuqtalari joylashuvini I va III hollarda oʻrganamiz va Erman akslantirishlari uchun Danjua tengligini I va III holatlarda isbotlaymiz.

Ikkita sinish nuqtasiga ega boʻlakli-chiziqli aylana akslantirishlari, Erman akslantirishlarini, h orqali belgilaymiz. Irratsional burish soni ρ ga ega boʻlgan ixtiyoriy Erman akslantirishlari Danjua teoremasi shartlarini qanoatlantiradi. Demak h akslantirish f_ρ chiziqli burish bilan topologik ekvivalent.

Biz h^{q_n} akslantirishning normallangan hosilalarini $\sigma_h(a_0)$ sinish kattaligi hamda h^{q_n} ning sinish nuqtalaridan hosil qilingan $B_n(h)$ boʻlinish intervallarining μ_h-oʻlchovi yordamida ifodalaymiz.

I va III hollarda $a_0^* = 0$ dan hosil boʻladigan $PB_h(a_0^*)$ sinish nuqtalari va $c_0^* = c_0$ dan hosil boʻladigan $PB_h(c_0^*)$ sinish nuqtalari S^1 aylanada navbatma-navbat joylashadilar.

Aytaylik, n toq boʻlsin. h^{q_n} akslantirishning sinish nuqtalaridan foydalanib quyidagi subintervallarni aniqlaymiz:

$$A_n := \bigcup_{s=1}^{i_0} [c^*_{-i_0+s},\, a^*_{-q_n+s}], \quad B_n := \bigcup_{s=i_0+1}^{q_n} [c^*_{-i_0-q_n+s},\, a^*_{-q_n+s}].$$

III holda keltirilgan farazimizda subintervallar mos ravishda $[a^*_{-q_n+s}, c^*_{-i_0+s}],\ 1 \le s \le i_0$ va $[a^*_{-q_n+s}, c^*_{-i_0-q_n+s}],\ i_0+1 \le s \le q_n$ koʻrinishida berilgan. Bu subintervallarni quyidagi qism toʻplamlarga birlashtiramiz:

$$A_n := \bigcup_{s=1}^{i_0} [a^*_{-q_n+s}, c^*_{-i_0+s}], \quad B_n := \bigcup_{s=i_0+1}^{q_n} [a^*_{-q_n+s}, c^*_{-i_0-q_n+s}].$$

n soni juft boʻlganda yuqoridagi intervallarning chetki nuqtalari oʻrin almashgan holda boʻladi. I hol va n juft boʻlganda va mos ravishda III hol va n toq boʻlganda A_n va B_n qism toʻplamlarini avvalgidek aniqlash mumkin. Yuqoridagilar shuni koʻrsatadiki, A_n va B_n qism toʻplamlaridagi har bir intervalning chetki nuqtalari mos ravishda $PB_h(a_0^*)$ va $PB_h(c_0^*)$ dan olingan sinish nuqtalaridan iboratdir. $\sigma = \sigma_h(a_0)$ orqali h akslantirishning $x = 0$ nuqtadagi sinish kattaligini belgilaymiz va birinchi paragrafning asosiy natijasini keltiramiz.

6-teorema. *Aytaylik, h akslantirish ρ_h irratsional burish soniga, turli orbitalarda yotuvchi ikkita $a_0^* = 0$ va $c_0^* := c_0$ sinish nuqtalariga ega va umumiy sinish kattaligi $\sigma_h = 1$ boʻlgan boʻlakli-chiziqli aylana gomeomorfizmi boʻlsin.*

Faraz qilaylik, c_0^* *biror* i_0 *,* $0 \le i_0 < q_{n-1}$ *uchun mos ravishda I va III hollardagi shartlarni qanoatlantirsin. U holda I holda*

$$(Dh^{q_n}(x))^{(-1)^n} = \begin{cases} \sigma^{\mu_h(A_n \cup B_n)-1}, & agar\ x \in A_n \cup B_n \\ \sigma^{\mu_h(A_n \cup B_n)}, & agar\ x \in S^1 \setminus (A_n \cup B_n); \end{cases}$$

va mos ravishda III holda

$$(Dh^{q_n}(x))^{(-1)^{n+1}} = \begin{cases} \sigma^{\mu_h(A_n \cup B_n)-1}, & agar\ x \in A_n \cup B_n \\ \sigma^{\mu_h(A_n \cup B_n)}, & agar\ x \in S^1 \setminus (A_n \cup B_n). \end{cases}$$

Ikkinchi paragrafida II va IV hollar uchun h^{q_n} ning sinish nuqtalari joylashuvi va Erman akslantirishlari h^{q_n} ning normallangan hosilalari uchun Danjua tengligi isbotlangan.

Uchinchi bobning uchinchi paragrafida h Erman akslantirishlari bilan bog‘liq cheksiz ketma-ketliklarning murakkablik funksiyalari o‘rganilgan. h^{q_n}, $n > 0$ ning normallangan hosilalari bilan bog‘liq cheksiz ikkilik ketma-ketliklari Shturm ketma-ketliklari bo‘lishi isbotlangan.

XULOSA

Ushbu dissertatsiya aylanada irratsional burish bilan bog‘liq cheksiz ikkilik ketma-ketliklarining murakkablik funksiyalarini, kritik aylana akslatirishlari uchun tushish vaqtlari holatlarini va bo‘lakli-chiziqli akslantirishlar uchun Danjua funksiyasini baholashni tadqiq qilishga bag‘ishlangan.

Tadqiqot ishining asosiy natijalari quyidagilar:

1. Irratsional aylana burishi bilan bog‘liq cheksiz ikkilik ketma-ketliklarning murakkablik funksiyalari topilgan.
2. Bitta kubik kritik nuqtaga va “oltin kesim” burish soniga ega bo‘lganaylana akslantirishlarining nomallangan umumlashgan tushish vaqtlari taqsimot funksiyalari bo‘yicha yaqinlashishi va limit taqsimot funksiyasi singular, ya’ni uzluksiz, qat’iy o‘suvchi va Lebeg o‘lchovi bo‘yicha deyarli barcha yerda hosilasi nolga teng ekanligi isbotlangan.
3. Ikkita sinish nuqtasiga ega bo‘lakli-chiziqli aylana gomeomorfizmlarining sinish nuqtalari joylashuvi topilgan.
4. h^{q_n} Erman akslantirishlari uchun Danjua tengligi isbotlangan.
5. h^{q_n} ning normallangan hosilalari bilan bog‘liq cheksiz ikkilik ketma-ketliklar Shturm ketma-ketligi ekanligi ko‘rsatilgan.

SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING OF THE SCIENTIFIC DEGREES DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 INSTITUTE OF MATHEMATICS NAMED AFTER V.I. ROMANOVSKIY

INSTITUTE OF MATHEMATICS

JALILOV ALISHER AKBAROVICH

DENJOY EQUALITY AND INFINITE BINARY SEQUENCES ASSOCIATED WITH CIRCLE HOMEOMORPHISMS

01.01.01-Mathematical analysis

ABSTRACT OF THESIS OF THE DOCTOR OF PHILOSOPHY (PHD) ON PHYSICAL AND MATHEMATICAL SCIENCES

TASHKENT-2021

The theme of thesis of doctor of philosophy (PhD) on physical and mathematical sciences was registered at the Supreme Attestation Commission at the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan under number B2021.3.PhD/FM621.

Thesis has been prepared at Institute of Mathematics named after V.I.Romanovskiy.

The abstract of the thesis is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (summary)) on the website http://kengash.mathinst.uz and in the website of "ZiyoNet" Information and educational portal http://www.ziyonet.uz/.

Scientific supervisor:	**Ayupov Shavkat Abdullaevich** Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Academician
Official opponents:	**Rakhimov Abdugafur Abdumajidovich** Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor
	Safarov Utkir Avlayorivich Candidate of Physical and Mathematical Sciences
Leading organization:	**Karakalpak State Univeristy**

Defense will take place "____"_________ 2022 at______at the meeting of Scientific Council number DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 at Institute of Mathematics named after V.I. Romanovskiy. (Address: University str. 9, Almazar area, Tashkent city, 100174, Uzbekistan, Ph.: (99871) 207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz)

Thesis is possible to review in Information-resource center at Institute of Mathematics named after V.I.Romanovskiy (is registered №_____). (Address: University str. 9, Almazar area, Tashkent city, 100174, Uzbekistan, Ph.: (99871)-207-91-40).

Abstract of the thesis sent out on «____» ____________ 2021 year
(Mailing report № ___ on «____» ____________ 2021 year)

U.A.Rozikov
Chairman of Scientific Council
on award of scientific degrees,
D.F.-M.S., Academician

J.K.Adashev
Scientific secretary of Scientific Council
on award of scientific degrees,
D.F.-M.S., Senior researcher

U.U.Jamilov
Chairman of Scientific seminar under
Scientific Council on award of scientific degrees,
D.F.-M.S., Senior researcher

INTRODUCTION

Actuality and demand of the theme of the thesis. In the world, many scientific and applied researchs are reduced to the study of one dimensional and symbolic dynamical systems. Dynamic systems are widely used in many other mathematical fields. Moreover, circle maps and symbolic dynamics are used in solving problems of medicine, biology, information technology and other exact science. Hitting times, random shifts and properties of the complexity functions of infinite symbolic sequences play an important role in predicting the long-term state of a particular process modeled in the form of nonlinear dynamic systems. For this reason, the study of the properties of limit theorems for hitting times of dynamic systems, the properties of sequences describing linear and nonlinear maps has become one of the most important and topical issues in the theory of dynamic systems.

